

UDK:631.1.636.7

**YUQORI QO'SHILGAN QIYMATGA EGA QISHLOQ XO'JALIGI
MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI
OSHIRISH**

*Baxrom Shafkarov,
Malika Saidmurodova,
Shohruh Holdorov*

*"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari
instituti" milliy tadqiqot universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bir birlik qishloq xo'jaligi mahsulotini saqlash, saralash va qadoqlash hisobidan yuqori qo'shilgan qiymat yaratilishi tahlil etilgan. Tarmoqda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar bayon etilgan.

Annotatsiya. В данной статье анализируется создание высокой добавленной стоимости за счет хранения, сортировки и упаковки одной единицы сельскохозяйственной продукции. Представлены предложения по повышению эффективности производства продукции с высокой добавленной стоимостью в сети.

Abstract: This article analyzes the creation of high added value through storage, sorting and packaging of one unit of agricultural products. Proposals are presented to improve the efficiency of production of high value-added products in the network.

Kalit so'zlar: qiymat, qo'shilgan qiymat, zanjir, daromad, bozor bahosi, talab, rag'batlantirish, saqlash tizimi, sotish.

Qishloq xo'jaligi sohasida raqobatdoshlikni ta'minlashning eng muhim omili – har bir tarmoqda yetishtirilgan mahsulotda yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu zanjirdagi har bir tuzilmani (mahsulot yetishtirish, saqlash, saralash, maydalash, quritish, qadoqlash va

boshqalar) tashkil qilinishi va zamonaviy innovatsion texnologiyalar hamda resurstejamkor ishlanmalar bilan rivojlantirilishi bu zanjirdagi barcha xo'jalik sub'ektlarida doimiy yangi ish o'rinlarini yaratish va umum daromadni oshirishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki qishloq xo'jaligi mahsulotlari yilning muayyan mavsumida yetishtiriladi, shu sababli ushbu mahsulotlarni uzoq vaqt saqlash va qayta ishlash tizimini tashkil qilmagan holda aholini yil bo'yi turli xildagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini ta'minlab turish masalasini ijobiy hal qilib bo'lmaydi.

Buning uchun mavjud resurslarimizni to'liq ishga solishimiz, unga yarasha katta daromad olishimiz zarurligini inobatga olgan holda so'nggi yillarda mamlakatimizda mazkur soha yuqori shiddat bilan isloh qilinmoqda.

Biroq, respublikamiz qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda ulkan imkoniyatlarga ega. Ammo, qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ishtirish va saqlashdagi yo'qotishlar hajmi 30 foizdan kamaymayapti [1].

Shu boisdan aholi farovonligini doimo oshirib borishda xalqimiz turmush tarziga eng yaqin va tez natija beradigan yo'nalish sifatida qishloq xo'jaligida yuqori daromadli qo'shilgan qiymatga ega intensiv ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarining qaror topishi har bir xizmat qo'rsatuvchini raqobatbardosh bo'lishga majbur qiladi. Raqobatbardosh bo'lish uchun esa doim izlanishda va xizmatlardan foydalanuvchilarga qulayliklar yaratish orqali daromadga ega bo'lishga intilish talab etiladi. Agrar sohada yuqori qo'shilgan qiymatga ega qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo'g'inida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash xizmati muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash xizmatini ko'rsatuvchi xo'jalik sub'ektlari bundan bir necha yillar oldin faqatgina mahsulotni ma'lum muddat saqlash yordamida bir tonna mahsulot uchun xizmat haqi olish orqali daromad

olgan bo'lsa, bugungi kunda kelib omborxonalar soni va turi (sovutgichli va muzlatgichli) ko'payib borishi natijasida mazkur turdagi omborxonalarda bozor talabi kamayishi sababli to'liq quvvat bilan ishlamasligi kuzatilmoqda. Oqibatda esa omborxona egalari turli qo'shimcha xizmat turlarini taklif etgan holda mahsulot saqlovchiga qulayliklar yaratish orqali raqobat maydoniga g'olib chiqish uchun kurashishmoqda.

Yuqori qo'shilgan qiymatga ega qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo'g'inidagi tadbirkorlikning ushbu shaklida eng keng tarqalgan qo'shimcha xizmat turi bu mahsulotlarni qadoqlash hisoblanadi. Mazkur xizmat turi orqali tadbirkor qo'shimcha ish o'rni yaratishi, mahsulotlarni iste'molchi didi va talabiga moslashtirish hamda provardida qo'shilgan qiymat yaratishi mumkin.

Monografik tadqiqotlar natijasidan kelib chiqib aytish joizki, omborxonalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash orqali 2 xil usulda qo'shilgan qiymat yaratilishi mumkin. Xususan omborxona rahbari o'z moliyaviy mablag'lari hisobiga meva va sabzavotlarni harid qilishi hamda uni ma'lum muddat saqlagan holda o'ziga qulay muddatda bozordagi talab va taklifdan kelib chiqib sotishi orqali qo'shimcha qiymat yaratilsa, ikkinchi usulda mahsulot ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar tomonidan yetkazib berilgan bir birlik mahsulotni kelishilgan muddatlar davomida belgilangan talablar doirasida saqlash xizmatini ko'rsatish orqali qiymat yaratiladi. Saqlash orqali qiymat yaratishda qadoqlash uchun yashiklar (karton, plastmassa yoki yog'och), polietilin qoplar yoki shu kabi boshqa saqlash vositalarini ijaraga berish orqali qiymat turlicha shakllanadi.

Xususan 2023 yilda respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash natijasida yaratiladigan qiymatga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, olmaning saqlashdan oldingi bozor bahosi o'rtacha 4500 so'mni tashkil etgan bo'lsa, saqlash xarajatlari 2000 (666,6 so'm/kg o'rtacha 3 oy saqlanadi) so'mni va saqlashdan keyingi bozor bahosi o'rtacha 10000 so'mni tashkil etgan. Natijada saqlash xizmati evaziga qo'shilgan qiymat 44,4 % ni hamda saqlashdan keyin bozor bahosi o'sishi natijasida qo'shilgan qiymat esa 222,2 % ni tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval.

**2023 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarni omborxonalarda saqlash
natijasida qo'shilgan qiymat yaratilishi**

(2023 yilda turli sotish kanallaridagi o'rtacha baholar asos sifatida olingan)

Qishloq xo'jaligi mahsulotla ri nomi	Saqlashdan oldin bozor bahosi, so' m/kg	Saqlash xizmati, so' m/kg (o' rtacha 3 oy saqlanadi)	Saqlashdan keyingi bozor bahosi, so' m/kg	Qo'shilgan qiymat, so'm/kg		Qo'shilgan qiymat ulushi, %	
				Saqlash xizmati natijasida qo'shilga n qiymat, so'm	Saqlashdan keyin bozor bahosi o'sishi natijasida qo'shilgan qiymat, so'm	Saqlash xizmati natijasida qo'shilga n qiymat, %	Saqlashd an keyin bozor bahosi o'sishi natijasid a qo'shilga n qiymat, %
	1	2	3	4=2	5=3-1	6=2/1*10 0	7=3/1*1 00
Olma	4500	2000	10000	2000	5500	44,4	222,2
Anor	10000	2500	25000	2500	15000	25,0	250,0
Gilos	15000	2500	30000	2500	15000	16,7	200,0
Uzum	7000	2500	18000	2500	11000	35,7	257,1
Kartoshka	3500	1500	6000	1500	2500	42,9	171,4
Sabzi	2000	1200	4000	1200	2000	60,0	200,0
Piyoz	1000	900	2000	900	1000	90,0	200,0

Turli tipdagi omborxonalarda gilosni saqlash natijasida qo'shilgan qiymat 16,5 % ni hamda saqlashdan keyin bozor bahosi o'sishi natijasida qo'shilgan qiymat esa 200,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich uzumda mos ravishda

35,7 % va 257,1 %ni, kartoshkada 42,9 % va 171,4 % ni, sabzida 60,0 % va 200,0 % ni hamda piyozda 90,0 % va 200,0 % ni tashkil etmoqda.

Jumladan, 1 kg olmani saqlashdan keyin 5500 so'm, anorda 15000 so'm, gilosga 15000 so'm, uzumda 11000 so'm, kartoshka 2500 so'm, sabzi 2000 so'm va piyozni 1 kg ni bahosiga 1000 so'mdan qo'shilgan qiymat shakllangan holda o'zgargan. Albatta bunday ko'rinishdagi qo'shilgan qiymat yaratilishiga bozordagi talab va taklif o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Aksariyat tadbirkorlar qishloq xo'jaligi mavsumi davrida, bozor ushbu turdagi mahsulotlarga to'yingan davrda meva-sabzavot, poliz, don va dukkakli don mahsulotlarini dehqonlardan ulgurji narxlarda xarib qilib olishadi. Bundan asosiy maqsad ayrim turdagi mahsulotlar ma'lum muddat saqlanib keyinchalik bozordagi talabdan kelib chiqib qo'shilgan qiymat yaratgan holda sotilsa, ayrim turdagi mahsulotlar esa saralanib, qayta ishlanib qadoqlangan holda yuqori qo'shilgan qiymat yaratilgan ko'rinishda o'z iste'molchilariga yetkazib berilmoqda.

Misol uchun qayta ishlash korxonasi dukkakli mahsulot turi hisoblangan no'xatni tozalash, kalibirovkalash, qovurish, pishirish va qadoqlash natijasida bir necha turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Har bir mahsulotni qayta ishlash natijasida turli darajada qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Jumladan, o'rtacha ko'rsatkichlar asosida hisob-kitob qiladigan bo'lsak, 1 kg qovurilgan no'xat tayyorlashda 1,2 kg no'xat talab etilishini hisobga olib uning ulgurji bahosi 15000 so'm/kg bo'lganida bir birlik qayta ishlangan mahsulot bohosi o'rtacha 28000 so'mni tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki qo'shilgan qiymat 13000 so'mni tashkil etmoqda. Bu esa 1 kg qovurilgan no'xat ishlab chiqarishga 86,6 foiz qo'shilgan qiymat yaratilishini ko'rsatmoqda (2-jadval).

2-jadval.

No'xatni dastlabki qayta ishlash natijasida qo'shimcha yaratiladigan qiymat
(o'rtacha ko'rsatkichlar asos sifatida olingan, bu qayta ishlash turi va shaklida tebranib turishi mumkin)

<i>Ko'rsatkichlar</i>	<i>Qovurilgan</i>	<i>No'xot uni, kg</i>	<i>No'xot holva,</i>
------------------------------	--------------------------	------------------------------	-----------------------------

	no'xat, kg		kg
Talab etiladigan no'xat, kg	1,2	1,1	0,8
No'xat bahosi, so'm (ulgurji narxlarda)	15000	15000	15000
1 birlik qayta ishlangan mahsulot bahosi so'm (ulgurji narxlarda)	28000	40000	32000
Qo'shilgan qiymat, so'm	13000	25000	17000
Qo'shilgan qiymat ulushi*, % da	86,6	166,6	113
<i>*Ushbu qo'shimcha qiymatlar turli sotish bo'g'rinlarida yaratilgan va so'nggi iste'molchiga yetib borish natijasida shakllangan holat inobatga olingan.</i>			

Shuningdek, bugungi kunda aholi o'rtasida qandli deabet kasalligiga chalinganlar uchun no'xot uni va no'xot holvasi kabi parxezbop mahsulotlar ham ommalashib bormoqda. Xususan, no'xat uni inson sog'ligini yaxshilashga yordam beruvchi va tanaga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi vitamin va minerallarga boy mahsulotdir. Ushbu mahsulot turi Hindiston, Pokiston hamda Shri-Lanka kabi davlatlar oshxonasining tarkibiy qismi hisoblanadi. No'xot unini tayyorlash uchun o'rtacha hisobda 1,1 kg no'xat talab etilishini hisobga olib uning bahosi 15000 so'm bo'lganida bir birlik qayta ishlangan mahsulot bahosi o'rtacha 40000 so'mni tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki qo'shilgan qiymat 25000 so'mni tashkil etmoqda. Bu esa 1 kg no'xat uni ishlab chiqarishga 166,6 foiz qo'shilgan qiymat yaratilish imkoniyatini vujudga keltirmoqda.

Ta'kidlanganidek, parxezbop mahsulotlar orasida no'xot xolvasi ham mavjud bo'lib, u asab tizimi uchun foydali. Shirinlik tarkibidagi ko'p miqdorda B9

vitamini (foliy kislotasi) mavjud. Mutaxassislar ushbu vitaminni "ajoyib kayfiyat vitamini" deb ham atashadi, chunki u "baxt gormonlari" ishlab chiqarishda faol ishtirok etadi. Shu bilan birgalikda no'xat holvasi ayollarning xomiladorlik davrida foydalidir. Tabiiy holva ko'plab vitaminlar va minerallarning yetishmasligini qoplashga yordam beradi.

No'xat holvasini tayyorlashda o'rtacha hisobda 0,8 kg no'xat talab etilishini hisobga olib uning bahosi 12000 so'm bo'lganida bir birlik qayta ishlangan mahsulot bahosi o'rtacha 32000 so'mni tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki qo'shilgan qiymat 17000 so'mni tashkil etmoqda. Bu esa 1 kg no'xat holvasi ishlab chiqarishga 113 foiz qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Tahliliy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarni nafaqat ishlab chiqarish, qolavirsa uni saqlash, qadoqlash va yuqori qo'shilgan qiymat yaratgan holda qayta ishlab yakuniy iste'molchilariga yetkazib berish ham ishlab chiqaruvchi, ham iste'molchi uchun, balki davlat uchun ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda qishloq xo'jaligi tarmog'ida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarish maqsadida muzlatgichli omborxonalarda mahsulot saqlashda elektr, gaz kabi komunal resurslarni yetkazib berishda imtiyozli stavkalarni qo'llash hamda energiya manbalari ta'minotini uzuluksiz kafolatli tarzda tashkil etish zarur.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlari kooperatsiya tamoyillari asosida «mahsulot yetishtirish – xarid qilish – saqlash – qayta ishlash – eksport» zanjirini tashkil etgan holda faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq. Bu nafaqat mahsulot ishlab chiqaruvchi uchun, balki xizmat ko'rsatuvchi bo'g'in uchun ham qo'shimcha qiymat yaratilishi hisobiga daromad topish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Askarov N. The development of diversified farms is one of them an important factor in increasing agricultural productivity // International Journal of

Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 9s, (2020), pp. 4738-4746, ISSN: 2005-4238. IJAST Copyright © 2020 SERSC, skopus

2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-q/qoshilgan-qiymat-uz/>
3. [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/10_Mamasoliyev.p
df](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/10_Mamasoliyev.pdf)